



TA'LIMNING BARCHA BO'G'INLARINI RIVOJLANTIRISH, YOSHLAR VA PEDAGOGTLAR UCHUN IMKONIYATLARNI KENGAYTIRISH ISLOHOTLARNING ENG USTUVOR YO'NALISHI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 15-sentabr kuni Toshkent viloyatining Bo‘stonliq tumaniga tashrif buyurdi hamda o‘qituvchi va murabbiylar bilan muloqot qildi.



Davlatimiz rahbari ta'lim-tarbiya tizimida alohida o'rnini egallagan xodimlardan bir guruhiga davlat mukofotlarini tantanali topshirdi hamda ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchi va murabbiylarni yanada qo'llab-quvvatlash masalalarini muhokama qildi. Shuningdek, tumanda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarini ko'zdan kechirdi.

Dastlab davlatimiz rahbari tumandagi "Renessans" bolalar sog'lomlashtirish oromgohida yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. Mamlakatimizda ta'lim va yoshlar masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Buning uchun ko'plab o'quv muassasalari qurilib, zamonaviy jihozlanmoqda. Yoshlarga umumiy ta'lim bilan birga iqtidoriga qarab ixtisoslashtirilgan bilimlar ham berilmoqda. Jumladan, 14 ta Prezident maktabi, 201 ta ixtisoslashgan, 2 ta sport va 9 ta ijod maktabi tashkil etildi. Ulardagi o'qitish va baholash tizimi 1 ming 500 ta maktabda ham joriy etildi.

Bu ishlarning mantiqiy davomi sifatida bilimli o'quvchilarni saralab, xalqaro darajada tarbiyalashga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. O'tgan yili Fan olimpiadalari markazi, bu yil xalqaro maktab tashkil etildi.

Davlatimiz rahbarining tashabbusiga muvofiq, yoshlarimizni Amerikaning "Pechak ligasi" (The Ivy League) universitetlariga tayyorlash yo'lga qo'yilmoqda. Buning uchun

milliy dastur qabul qilindi. Joriy yil dastlab 1,5 ming nafar o'quvchi saralab olindi. Ularga Prezident va ixtisoslashgan maktablardan 208 nafar maslahatchi birlashtirildi.

Mazkur "Renessans" oromgohi ushbu tizimning bir qismi bo'ldi. Bu yerda yoshlar yil davomida 3 haftalik intensiv o'quv kurslarda o'qitiladi. Yaxshi natija ko'rsatgan 40 nafari "Pechak ligasi" universitetlariga tajriba almashish uchun yuboriladi.

Oromgoh 500 ga yaqin o'quvchini qabul qilish quvvatiga ega. Ma'muriyat, o'quv binolari va yotoqxona zamonaviy sharoitlar yaratilgan. Mehmonxona, oshxona hamda avtoturargohlar tashrif buyuruvchilar uchun qo'shimcha qulaylik sanaladi.

Yozda o'tkazilgan seminarlarda fan olimpiadalari g'oliblari, xorijiy til sertifikatiga ega yoshlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj oila farzandlari ishtirok etdi. Bu teng imkoniyatlardan foydalangan o'g'il-qizlar bilimni oshirib, kelajagiga mustahkam zamin yaratdi.

Sir emas, ilgari oromgohlarga dam olish va ko'ngilochar maskan sifatida qaralgan. Endi bunday qarash mutlaqo o'zgardi. "Renessans" o'quvchilarning ta'lim, ma'naviyat va innovatsiya maydoniga aylandi.

Prezidentimiz oromgoh xonalaridagi sharoitlarni, yoshlarning ixtirolarini ko'zdan kechirdi.

STEAM xonalari, samolyot boshqaruvi simulyatori, tabiiy fanlar laboratoriyalari bolalarning qiziqishlarini amaliy ko'nikmalarga aylantiradi. Ular kutubxonada bilimni, sport maydonchalarida salomatligini mustahkamlaydi. San'at burchagida san'at, adabiyot yo'nalishidagi mashg'ulotlar qo'llab-quvvatlanadi. Xushmanzara tabiat, do'stona muhit yoshlarning kayfiyati, intilishini oshiradi.

Davlatimiz rahbari Yangi O'zbekiston universiteti rahbariyati va bitiruvchilari bilan ham muloqot qildi.

— O'zbekiston yoshlarining salohiyati, g'ayrat-shijoati, intilishi kuchli. Biz davlat bo'lib, millat bo'lib, sifati ta'limni ta'minlasak, farzandlarimizga hech kim bas kelolmaydi, ular hamma sohada yetakchi bo'ladi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Tanishuv davomida Al-Xorazmiy universiteti kampusi loyihasi taqdimot qilindi. Bu tashabbus zamirida ham yoshlarning bilimli bo'lishi, iqtidori rivojlanishi uchun sharoit yaratish maqsad qilingan. Loyihani samarali amalga oshirish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berildi.

Shu yerda O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan tantanali tadbir bo'lib o'tdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev so'zining avvalida o'z hayotini yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishdek eng ulug' ishga bag'ishlab kelayotgan barcha muallimlarni tabriklab, ularga chuqur hurmat-ehtiromini bildirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining shu yil 11-sentabrdagi farmoniga muvofiq, ta'lim-tarbiya tizimida alohida o'rnini egallagan xodimlardan bir guruhini faxriy unvon, orden va medallar bilan taqdirlangan edi. Ular orasida o'z mablag'i hisobidan maktablar qurgan saxiy tadbirkorlar, ta'limdagi ilg'or yutuqlarni joriy qilishga ko'maklashayotgan xorijiy hamkorlar ham bor.

Marosimda ana shu mukofotlar tantanali ravishda topshirildi.

— Men ko'plab soha vakillariga unvon, orden va medallar beraman. Lekin ustozlar mukofotlanadigan kuni sog'inib kutaman. Ko'ksingizni bezab turgan orden-medallar muborak bo'lsin. Yurtimizda yuksak mukofotlarga munosib fidoyi muallimlar ko'psin, — dedi Prezident.

Taqdirlanganlar nomidan so'zga chiqqanlar ta'lim sohasiga e'tibori, ustoz zotiga yuksak hurmati uchun davlatimiz rahbariga minnatdorlik izhor etdi.

Shundan so'ng sohani rivojlantirish chora-tadbirlari bo'yicha muloqot bo'lib o'tdi. Unda videoaloqa orqali butun respublikamizdan 40 mingdan ziyod ustoz va murabbiylar qatnashdi.

Davlatimiz rahbari yig'ilishdagi nutqida so'nggi sakkiz yilda mamlakatimiz iqtisodiyoti 2 karra o'sgani, yalpi ichki mahsulot hajmi yil yakunigaqacha 130 milliard dollarga yetishini qayd etdi.

Ushbu iqtisodiy zamin asosida o'tgan sakkiz yilda ta'lim va ilm-fan sohasiga xarajatlar 6 karra oshirilib, 378 trillion so'm mablag' ajratilgan. Prezidentimiz ta'lim sifatini oshirish, ustoz va murabbiylarning mehnat va yashash sharoitini yaxshilash islohotlarning eng ustuvor yo'nalishi bo'lib qolishini ta'kidladi.

Yig'ilishda ta'limning barcha bo'g'inlarini rivojlantirish, yoshlar va pedagoglar uchun imkoniyatlarni yanada kengaytirishga qaratilgan tashabbuslar belgilandi.

2017-yilda 4 mingdan ortiq mahallada birorta ham bolalar bog'chasi yo'q edi, qamrov 27 foizdan oshmasdi. Bugungi kunda bog'chalar soni 38 mingdan, qamrovi esa 78 foizdan oshdi. Yaqinda e'lon qilingan yangi imtiyoz va imkoniyatlar natijasida maktabgacha ta'lim kirib bormagan birorta mahalla qolmaydi, qamrov ham 80 foizdan kam bo'lmaydi.

Bog'chadagi rahbar va pedagoglar o'yligi qariyb 2 karra oshdi. Xususi bog'chalardagi tarbiyachilar o'yligi va bola xarajatining bir qismi ham byudjetdan qoplab beriladigan tizim joriy etildi.

Endi davlat va xususiy bog'cha tarbiyachilarini ishdan ajralmagan holda oliy ta'limda o'qitish yo'lga qo'yildi. Xuddi Prezident maktablari kabi har bir viloyatda "Yangi avlod" bog'chalari tashkil qilinib, tarbiyachilar ilg'or pedagogik texnologiyalar o'rganadi.

Ta'limning eng uzoq davom etadigan, hal qiluvchi bosqichi bu — maktab ta'limidir.

Mamlakatimiz aholisi so'nggi 34 yilda 2 karra o'sib, 38 milliondan oshdi. Hozirda maktablarda 6,5 million o'quvchi ta'lim olyapti. So'nggi sakkiz yilda 500 ga yaqin yangi maktablar qurilgan, mavjudlari kengaygani hisobiga 1 million o'quvchi o'rni yaratildi. 200 mingdan ziyod o'g'il-qizlar xususiy maktablarda o'qiyapti.

Endi maktab davrida o'quvchilarni qobiliyatiga qarab kasb yoki oliy ta'limga yo'naltirishga 9- va 11-sinf o'quvchilari uchun yagona davlat imtihonlari joriy qilinadi. Shu orqali 400 mingga yaqin 9-sinf bitiruvchilari texnikumlariga qamrab olinadi. O'qishni maktabda davom ettirib, oliygohga kirish istagida bo'lgan yoshlarga fanlar tanlov asosida chuqurlashtirib o'tiladi.

Har yili o'n minglab maktab o'quvchilari xorijiy til va fanlar bo'yicha xalqaro sertifikatlar olyapti. Endi bunday sertifikatlar maktabdagi yakuniy imtihonlarda ham tan olinadi.

Davlatimiz rahbari kasbiy ta'lim masalasiga alohida o'xtaladi. Soha uchun 2026-yil — Yoshlarni zamonaviy kasb-hunariga o'rgatish yili bo'lishi ta'kidlandi.

Shu maqsadda Kasbiy ta'lim agentligi tashkil qilinadi. Agentlikning asosiy vazifasi barcha 598 ta texnikumga yangi muhit olib kirish va xalqaro standartlarni joriy qilishdan iborat bo'ladi.

Davomi 2-betda



YOXUD QISHLOQ XO'JALIGI RIVOJI UCHUN ISHLAB CHIQILGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLAR HAQIDA

Bugun nafaqat yurtimizda, balki butun dunyo qishloq xo'jaligida hosildorlikni ko'tarishga qator omillar teskari ta'sir qilayotgani bor gap. Ayniqsa, bu keyingi yillardagi global iqlim o'zgarishi sharoitida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Jumladan, suv tanqisligi, tuproqning tobora sho'rlanib borayotgani, unumdor gumus qatlami kamayib ketishi, unumdorlik hamda sho'rxoklikni kamaytiruvchi mikroorganizmlar taqchilligi kabi omillar katta to'siqdir. Buning ustiga tuproq unumdorligi va hosildorlikni oshirishga yordam beruvchi biologik o'g'itlar qimmatligi va bioo'g'itlarni katta maydonlarga qo'llash moliyaviy jihatdan cheklangani muammolarni bartaraf etish imkonini bermayapti.

Shu bilan birga, issiqxona gazi ko'payishi natijasida haroratning keskin oshib ketishi, ayniqsa, tungi haroratning 25°C dan yuqori bo'lishi ekinlarga salbiy ta'sir qilmoqda.

Oxirgi paytlarda suv resurslari 9 foiz kamaydi va bu keyingi yillarda 14 foizga yetish ehtimoli mavjud. Shuningdek, respublikamizda 1,2 million gektar (33,2 foiz) sug'oriladigan yer gumus bilan kam ta'minlangan. 93 ta tumanda esa 1 million 671 ming gektar sho'rlangan maydon mavjud bo'lib, uning 91,5 ming gektari juda kuchli, 138,4 ming gektari kuchli, 532,9 ming gektari o'rta va 998,1 ming gektari kuchsiz sho'rlangan.

Davomi 3-betda

Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

IJRO INTIZOMI — IJOBIY O'ZGARISHLARGA ERISHISH VA NATIJADORLIK OMILI



Aholi farovonligini ta'minlash, xalqimiz turmush darajasini yanada ko'tarish, iqtisodiyotni rivojlantirish va xalqimizga xizmat qilish bugun oldimizga qo'yilgan pirovard maqsadimizdir. Bunga erishish borasida yurtimizda ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ijro intizomini mustahkamlash

Davlat boshqaruvi idoralari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida ijro intizomiga rioya etilishi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni, 2021-yil 31-maydagi "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini

ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori hamda 2025-yil 25-iyuldagi "Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida aniq vazifa va yo'nalishlar belgilab berilgan.

Mazkur hujjatlarga asosan Iqtisodiyot va moliya vazirligida ijro intizomini yanada mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati, shuningdek, yuqori turuvchi organlarning har bir topshirig'i ijrosini ta'minlashda alohida yondashuv, tartib va professionallik bilan ish ko'riladi.

Davomi 4-betda



TA’LIMNING BARCHA BO‘G‘INLARINI RIVOJLANTIRISH, YOSHLAR VA PEDAGOGLAR UCHUN IMKONIYATLARNI KENGAYTIRISH ISLOHOTLARNING ENG USTUVOR YO‘NALISHI

Boshlanishi 1-betda

Bir yil ichida 100 ta texnikumda Germaniya, Shveysariya, Xitoy, Koreya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlik yo’lga qo’yilib, ularning eng ilg’or kasbiy ta’lim dasturlari joriy qilinadi.

Shuningdek, kasbiy ko’nikmasi bor istalgan talabgor bo’ texnikumlarda xorijiy davlatlarning malakani baholash tizimi orqali imtihon qilinib, xalqaro sertifikat olishi mumkin bo’ladi.

Joriy o’quv yilidan Angliyaning “Pearson” kompaniyasi bilan hududlardagi 14 ta texnikumda “BTEC” xalqaro dasturi boshlandi. Bu orqali yoshlar xalqaro standartlar asosida turizm, axborot texnologiyalari, tibbiyot, qurilish, logistika, elektrotexnika, energetika, mashinasozlik, biotexnologiya, kreativ iqtisodiyot kabi yo’nalishlarda talab yuqori kasblarni egallaydi.

Kelasi yili sanoatda qariyb 45 milliard dollarlik 456 ta yirik loyiha boshlanadi. Endi texnikumlarda “investor — tarmoq — texnikum” janjiri asosida har bir loyiha bo’yicha dual ta’lim yo’lga qo’yiladi.

Korxonalar bilan aniq loyihalari bo’lgan texnikumlar o’rtasida zamonaviy ustaxonalar barpo qilish bo’yicha tanlov o’tkaziladi. Tanlov g’oliblariga ustaxona uchun zamonaviy uskuna va jihozlar, sport anjomlari olib beriladi.

Umuman, dual ta’lim bilan qamrov 5 barobar oshiriladi. Hamkor korxonalarga 5 milliard so’mgacha imtiyozli kredit ajratiladi, dual ta’lim orqali ishlayotgan o’quvchilar bo’yicha yagona ijtimoiy to’lov ikki barobar qisqartiriladi.

Yangi texnologiyalarni o’zlashtirish, ish topishda chet tillarni bilish juda muhim. Shu bois, texnikumlardagi xorijiy tillar uchun ajratilgan soatlar 4 karra ko’paytiriladi.

Prezidentimiz qaroriga muvofiq, maktablarda maslahatchi lavozimi joriy qilinayapti. Endi ular 7-sinfdan boshlab o’quvchilarni fanlarni o’zlashtirishi va kasbiy qiziqishi bo’yicha saralab, 9-sinfni bitirganida texnikumlarga yo’naltiradi.

Bundan tashqari, bu yil 11-sinfni bitirib, oliyog’ha kira olmagan 200 ming yoshlar ham texnikumlarda 3-6 oylik qisqa muddatli dasturlar asosida kasbga o’qitiladi.

— Bu yangi tashabbuslarimizdan maqsad nima? Har bir yoshni kasb-hunar orqali daromadli qilsak, oilalarning ro’zg’ori but bo’ladi, mahallalarda tinchlik hukm suradi. O’ylaymanki, bundan ota-onalar ham rozi bo’ladi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Texnikumdagi muallim va ustalarning malakasini, jamiyatdagi mavqeini oshirish choralari ham belgilandi. Jumladan, maktabdagi kabi texnikumlarning o’qituvchi va ustalari uchun kasbiy sertifikatlash tizimi joriy qilinadi. Bu orqali texnikum ustozlariga milliy sertifikat uchun oyligining 30 foizi, xalqaro sertifikatga esa 50 foizi miqdorida ustama to’lanadi. Bundan texnikumlarning 30 minglik pedagoglar jamoasi manfaat ko’radi. Ushbu muassasalar direktor va o’rinbosarlarining oylik maoshi ham oshiriladi. Endi texnikumlarda ham ilmiy daraja va unvonlar uchun ustamalar to’lash yo’lga qo’yiladi.

So’nggi yillarda, ayniqsa, oliy ta’lim qamrovi jadal oshdi. Oliy o’quv muassasalari soni 77 tadan 202 taga, jami talabalar soni 250 mingdan 1,5 millionga yetdi.

Yangi industrial davr — “to’rtinchi sanoat inqilobi”ni amalga oshirish uchun dunyoda “texnologik minerallar”ga talab bir necha karra ko’paymoqda. Tahlillarga ko’ra, dunyodagi volfram, molibden, rux va titan zaxiralariining 10-15 foizi mintaqamizga to’g’ri keladi. Ushbu ulkan resurslarni yuqori qo’shilgan qiymatli mahsulotga aylantirish uchun bizga eng avvalo ilm, bilim va innovatsiya kerak.

Shuning uchun ilm-fan va biznes vakillarini uchrastirib, manfaatli hamkorlikda ishlaydigan tizim tashkil etilishi aytiladi. Ixtirolarning tajriba-sinov ishlari xarajatlarini qoplashga qo’shimcha 100 milliard so’m ajratilishi belgilandi.

Yaqinda ixtirochilar o’rtasida to’qqizta yo’nalishda o’tkazilgan tanlov g’oliblariga elektromobil berildi. Ikkinchi o’rin sohiblari xorijga stajirovkaga yuboriladi, uchinchi o’rinni egallaganlar esa pul mukofotlari bilan taqdirlandi.

Endi bunday tanlovlar oliy ta’limning har bir yo’nalishida, o’qituvchilar va talabalar o’rtasida ham o’tkazilishi e’lon qilindi.

Oliy o’quv yurtlarida xorijiy TOP-500 talik universitetlar bilan hamkorlikda axborot texnologiyalari, sun’iy intellekt, agroteknologiya, tibbiyot, “yashil” energetika kabi ustuvor yo’nalishlarda qo’shma ta’lim dasturlari yo’lga qo’yiladi. TOP-100 talikka kirgan universitetlar filiallari ochiladi.

Prezidentimiz ustoz va murabbiylarning ijtimoiy sharoitlarini yaxshilash bo’yicha ham qator tashabbuslarni bildirdi.

Yangi yildan boshlab kamida 15 yil staiga ega bo’lgan oliy toifali pedagoglarga ipoteka krediti boshlang’ich badalining 25 foizi qoplab beriladi.

Kelgusi o’quv yilida davlat oliyog’holariga o’qishga kirgan pedagoglar farzandlarining shartnomasi summasiga 30 foiz chegirma beriladi.

O’qituvchilar yangi ta’lim texnologiyalarini keng qo’llashi uchun kompyuter xaridiga 10 million so’mgacha imtiyozli kredit beriladi. Kelasi yildan pedagoglar uchun davlat xizmatlari to’lovi 2 karra kamaytiriladi.

Fan o’qituvchilari kabi boshlang’ich ta’lim o’qituvchilari uchun ham milliy sertifikat berish tizimi joriy qilinadi. Sertifikat olganlarga har oyda 15 foiz ustama to’lanadi.

Bakalavr bosqichini imtiyozli diplom bilan bitirib, maktabga ishga kirganlarga avtomatik ravishda 2-malaka toifasi, magistrarga esa 1-malaka toifasi beriladi. Dunyodagi TOP-300 talik oliyog’holarga o’qishga kirgan pedagoglarga 20 ming dollargacha imtiyozli ta’lim krediti ajratiladi.

Yig’ilishda o’qituvchi va talabalar, ta’lim tashkilotlari rahbarlari bilan muloqot qilinib, taklif va fikrlari tinglandi.

Shu kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent viloyatining Bo’stonliq tumanidagi yangi turizm majmuasi imkoniyatlari bilan yaqindan tanishdi.

So’nggi yillarda hududda infratuzilma rivojlantirilib, yilning to’rt faslida maroqli sayohat uchun qulay sharoit yaratildi. Amirsoy,

Chinorkent, Chorvoq darvozasi kabi ulkan majmualar, zamonaviy mehmonxonalar, dam olish va umumiy ovqatlanish maskanlari ishga tushirildi.

Endi bu safaga “Chimyon” xalqaro umummavsumiy kurorti ham qo’shiladi. Fransiyaning “MND” kompaniyasi bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan ushbu loyiha uchun 1 ming 278 gektar maydon ajratilgan.

Loyiha doirasida mehmonxonalar va dengiz sathidan 3 ming 300 metr balandlikkacha osma dor yo’li quriladi. Bu to’liq mavsumiy turizmni ta’minlaydi. Qishda chang’i va snoubord, boshqa oylarda esa tog’ sayyohligi va ko’ngilochar hordiq imkoniyatlari paydo bo’ladi.

Davlatimiz rahbari bu yerdagi mehmonxona, restoran va savdo majmualarini ko’zdan kechirdi.

Jumladan, 6 qavatli zamonaviy mehmon-xona 320 nafar sayyohni qabul qilish imkoniyatiga ega. Unda yil davomida o’rtacha 45 ming turistga xizmat ko’rsatadi. E’tiborsiz, bu yerda “Wyndham” brendi bilan hamkorlikda malakali boshqaruv yo’lga qo’yilmoqda. Bu nafaqat xizmat sifati, balki mamlakatimiz turizmining xalqaro nufuzini oshirishda ham muhim sanaladi. Mehmonxonani noyabrda ishga tushirish rejalashtirilgan.

Hududdagi yana bir loyiha doirasida 7 va 5 qavatli apart-otellar, 7 qavatli mehmonxona hamda 2 qavatli restoran qurildi. Ularda ham xizmat sifati xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish nazarda tutilgan. Yil davomida o’rtacha 54 mingdan ziyod mehmonni qabul qilish mo’ljallangan. Majmuada 100 dan ortiq kishi ishl bo’ladi. Ayni paytda 6 ta shale qurilishi davom etmoqda.

Prezidentimiz yangi majmualar qurish va xizmat ko’rsatishda ilg’or tajribalarni qo’llash, xodimlar malakasini oshirish muhimligini qayd etdi. Hududdagi imkoniyatlarni turizm platformalarida targ’ib etib, mahalliy va xorijiy sayyohlarni faol jalb etish yuzasidan ko’rsatmalar berildi.

Shu yerda 300 ta avtomobilga mo’ljallangan turargoh ham bor. Uning birinchi qavatida

restoran, bolalar maydonchasi va savdo majmuasi tashkil etilgan. Bu nafaqat qulaylik, balki turistlar uchun qo’shimcha xizmatlarni yaxlit taqdim etish imkoniyatini ham beradi.

Umuman, “Chimyon” umummavsumiy kurorti samarasida xizmat ko’rsatish sohasida minglab yangi ish o’rinlari, mahalliy aholi uchun barqaror daromad manbai paydo bo’ladi. Turistlarga eng zamonaviy xizmatlarni taklif etib, mamlakatimizga tashrif buyuruvchi sayyohlar sonini sezilarli oshiradi.

Bo’stonliqda turizm boshqa sohalar bilan uyg’un tarzda rivojlanib, butun hududning iqtisodiy qiyofasini o’zgartiryapti. Savdo va xizmatlar turi, transportlar harakati ko’payyapti. Shu bois umummavsumiy kurort loyihasi doirasida avtomobil yo’lida tunnel ham qurildi.

Ushbu inshoot tarkibiga uzunligi 1 ming 450 metr bo’lgan asosiy yo’l qismi, 2 ta ko’pri va piyodalar yo’laklari kiradi. U hududdagi tog’ kurortlariga olib boruvchi asosiy yo’lni qisqartiradi. Xavfsizlikni oshirib, transportlar harakatini yengillashtiradi. Tunnel orqali soatiga 500 dan ziyod avtomashina xavfsiz va qulay harakatlanishi mumkin.

Yo’llar qulayligi hududning turizm salohiyatini to’la ishga solish va iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omili ekani ta’kidlandi. Shu bilan birga, tabiatni musaffo saqlash, dam oluvchilarning ekologik madaniyatini oshirish muhimligi qayd etildi.

Bu kabi loyihalar turistlarga qulaylik yaratishi barobarida mamlakatimizning investitsiyaviy va madaniy jozibadorligini oshiradi. Bo’stonliq bugungi kunda tabiiy go’zalliklari, zamonaviy majmualari va yuksak xizmat madaniyati bilan ana shunday markazga aylanib bormoqda.

Bo’stonliq tumaniga tashrifi davomida Prezident Shavkat Mirziyoyev Chimyon mahallasida barpo etilayotgan agrosanoat bog’ini ham borib ko’rdi.

Bo’stonliqda suv mo’li, yeri unumdor. Bunga asoslanib, turizm va agrar soha uyg’un rivojlantirilmoqda. Jumladan, Chimyon mahallasida 3 ming gektar maydonda malina, qorag’at,

qulupnay, o’rmon yong’og’i kabi mevalarni yetishtirish yo’lga qo’yilmoqda.

Loyihaning umumiy qiymati 60 million dollardan ortiq. Bu mablag’ evaziga bog’lar tashkil etiladi, mevani qayta ishlash korxonalari hamda katta sig’imli omborxonalar quriladi.

Ayni paytda 50 gektar maydonda malina va qulupnayning xorijiy eksportbop navlari ekilgan. Bog’ to’liq tomchilatib sug’oriladi. Malinaning har gektaridan 400 million so’m, qulupnaydan esa 500 million so’mgacha daromad olinadi.

Loyiha to’liq amalga oshirilgandan so’ng yiliga 24 ming tonnaga yaqin mahsulot yetishtiriladi. Uning salmoqli qismi — o’rmon yong’og’i va rezavorlar eksportga yo’naltiriladi. Eng muhim jihati, bog’larda 12 mingdan ziyod kishi ishl bo’ladi.

Davlatimiz rahbari loyihani qo’llab-quvvatlab, endi qayta ishlashni rivojlantirish kerakligini ta’kidladi. Buning uchun navni tanlashdan tortib, ishlov berish, mevalarni terish va saralash jarayonlarigacha zamonaviy yondashuv talab etiladi. Bu mahsulotlarning sifati va xaridorigirligini ta’minlab, eksportda ham muhim o’rin tutadi. Bog’ yashnab, atrofida korxonalar va turdosh xizmatlar ko’paygani sari odamlar uzoqqa qatnamay, shu yerda ishlaydi. Qo’shimcha daromad manbai paydo bo’lib, hudud iqtisodiyoti rivojlanadi.

Prezidentimiz boshqa adir va yaylovlar imkoniyatini ham o’rganib, shunday serdaromad bog’lar tashkil etish bo’yicha ko’rsatmalar berdi.

— Bu bog’da yerga mehr, siqidiqidan qilingan mehnat ko’rinib turibdi. Natijasi, avvalo, daromad, xalqimizga manfaat. Bu jihatlari boshqa an’anaviy ekinlarga nisbatan bir necha barobar yuqori. Shuning uchun bunday mahsulotlar yetishtirishni ko’proq odamlarga o’rgatib, daromadini ko’paytirish kerak, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
Abdulaziz RUSTAMOV,
O’zA maxsus muxbirlari

Tahlil

“O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI: UZOQ MUDDATLI MAQSADLARGA POYDEVORDIR



Jamshid SHARIPOV,
“Taraqqiyot strategiyasi” markazi bo’lim boshlig’i

So’nggi sakkiz yilda iqtisodiyot izchil o’sdi. YIM hajmi 2017-yildagi 69,6 milliard dollardan 2024-yilda 115 milliard dollarga yetdi. Bir qarashda raqamlar oddiy statistikadek ko’rinishi mumkin, biroq ular zaminida millionlab insonlarning turmush sharoiti yaxshilangani, ish o’rinlari ko’paygani va yangi imkoniyatlar ochilgani mujassam.

Inflyatsiya darajasi 14,4 foizdan 9,8 foizga pasaygani esa bozorlarda narx-navoni barqaror saqlash, aholining kundalik xarid qobiliyati oshishiga xizmat qildi. Bu ko’rsatkichlar iqtisodiy siyosatdagi uzluksiz islohotlar samarasini yaqqol namoyon etadi.

Fuqarolar davlat byudjeti taqsimoti jarayonida bevosita ishtirok eta boshladi. “Ochiq budget”, “Mening yo’lim” va “Tashabbusli budget” platformalari orqali har bir fuqaro o’z ovozi bilan mahallasi, shahrining taraqqiyotiga hissa qo’shmoqda.

Davlat byudjeti daromadi 2017-yildagi 49,7 trillion so’mdan 2024-yilda 274,4 trillion so’mgacha yetdi. Bir vaqtning o’zida QQS stavkasining 20 foizdan 12 foizga tushirilishi tadbirkorlarning soliq yukini yengillashtirdi va raqobatbardoshligini oshirdi.

O’zbekiston xalqaro maydonda ishonchli hamkor sifatida ham o’zini ko’rsatdi. 2024-yil may oyida Toshkentda o’tkazilgan xalqaro investitsiya forumida 26,6 milliard dollarlik kelishuvlar imzolangani mamlakatimizga ishonchning yorqin isbotidir.


Asosiy kapital investitsiyalar 2017-yildagi 72,2 trillion so’mdan 2024-yilda qariyb 494 trillion so’mgacha yetdi. To’g’ridan to’g’ri xorijiy investitsiyalar miqdori esa 3,3 milliard dollardan 34,7 milliard dollarga ko’tarildi. Bu raqamlar ortida yangi zavodlar, ishlab chiqarish korxonalari, texnologiyalar, eng muhimi, yangi ochilgan ish o’rinlari turibdi.

Moliya bozorini erkinlashtirish va to’lov tizimlarini modernizatsiya qilish aholi va biznes uchun katta

MATONATLI SINOVDA HAM IMKON TOPAR

Muzaffar odamlar

Navoiy viloyatining Karmana tumani Do’rmon mahallasidagi mo’jaz xonadon tomorqasidagi anorzor kishi ko’zini quvontiradi. Daraxtlar oralab yurgan bog’bon, xonadon sohibi Axtam Yaxshiyev o’z o’y-xayoli bilan band.



U uzoq yillar avval — ayni navqiron yigit yoshida baxtsiz hodisa sabab ikki oyog’idan ayrilgan. O’sha kuni hech qachon yodidan chiqarmaydi. 1990-yil fevralda harbiy xizmat doirasidagi topshiriqni bajarib qaytayotganda Turkmanistonning kimsasiz hududida ikki oyog’i shikastlanib qolib ketadi. Tongga qadar sudralib bo’lsa-da, mashinalar qatnaydigan yo’lga yetib borgach, hushini yo’qotadi. Yo’lovchilar Axtam Yaxshiyevni ko’rib qolib, Chorjo’y shahridagi shifoxonaga olib boradi. O’sha yerda shifokorlar Axtam akaning ikki oyog’ini tizza qismidan kesishga majbur bo’ladi.

Hayotning og’ir sinovidan tushkunlikka tushganda yaqinlari dalda berdi. Uni har tomonlama qo’llab-quvvatlad. 22 yoshida uylangach, turmush o’rtog’i Zilola Yaxshiyeva yelkadosh bo’ldi. Ikki oyog’iga ham protez moslamasi qo’yilgach, Axtam Yaxshiyev hisobchilik bo’yicha ta’lim oldi. Bir necha yil shu sohada faoliyat yuritdi. Ayni vaqtda mahalladagi namunalii oila sohibi va mehnatkash inson sifatida hurmatga sazovor. Tomorqasidan samarali foydalanib, yaxshi daromad topayotir.

— Bu dunyo sinovlardan iborat. Muhimi, inson ularni yengib o’tish uchun o’zida kuch topishi lozim, — deydi Axtam Yaxshiyev. — Hozir asosan



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O’QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



G’olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O’zbekiston” muxbiri



Yarovizatsiya

UNUVCHANLIKNI OSHIRIB, VEGETATSIYA DAVRINI QISQARTIRADI

YOXUD QISHLOQ XO‘JALIGI RIVOJI UCHUN ISHLAB CHIQILGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLAR HAQIDA



Ibrohim ABDURAHMONOV,
qishloq xo‘jaligi vaziri

Boshlanishi 1-betda

Qo‘llanilayotgan kimyoviy o‘g‘itlar tuproq bioxilma-xilligi (mikroorganizmlar) yo‘qolishiga sabab bo‘lmoqda. Tuproqqa malham bo‘ladigan bioo‘g‘itlar narxi esa baland. Qolaversa, zararli issiqxona gazi hajmi yildan yilga ortib bormoqda. Shu bois, ayni paytda bu muammolarni bartaraf etish uchun ilm-fan yutuqlari va innovatsiyaga asoslangan oddiy, kamxarajat, noan‘anaviy va hammabop, hamyonbop, lekin qo‘shimcha daromad beruvchi yondashuv hamda tajribalarni joriy qilish hayotiy zaruratga aylanmoqda.

Quyida bir qarashda ana shunday juda jo‘n, lekin ishtiyoq va hafsala bo‘lsa, barcha o‘z yerida amalga oshira oladigan bir necha yangicha yondashuv bilan o‘rtoqlashmoqchimiz.

Tuproqni “tiriltiruvchi” malham

Dastlab qayta tiklanuvchi (regenerativ) qishloq xo‘jaligini joriy qilishda oddiy dala sharoitida fermerning o‘z qo‘li bilan yaratiladigan hayotbaxsh shira, ya‘ni jivamrit va bokashi bioo‘g‘iti haqida ma‘lumot beramiz. Hindlar jivamrit deb ataydigan bu suyuq bioo‘g‘it barqaror qishloq xo‘jaligi uchun juda muhim. Chunki u tuproq sog‘lomligini tiklaydi, ekin hosilini oshirib, kimyoviy o‘g‘itlarga qaramlikni kamaytiradi.

Aslida, “jivamrit” atamasi sanskrit tilidan kelib chiqqan bo‘lib, “jeyevan” (hayot), “amrit” (shira) ma‘nolarini anglatadi. U “nol xarajatli tabiiy dehqonchilik” tizimida keng qo‘llaniladi. Jivamrit fermalarda oson topiladigan tarkibiy qismlardan tayyorlanadi.

Uning asosiy “masallig‘i” daladan (bir konturdan) olingan bir belkurak tuproq (dalaga xos mikroorganizmlar to‘plami), suv va ozuqadan (shakar, go‘ng, mol peshobi) iborat.

Sharoitga qarab, 50-200 litrli bochkaga dalaning har joyidan olingan bir belkurak tuproq, yangi mol go‘ngi (10 kilogramm, ozuqa moddalar va mikroorganizmlar-inokulyatorlar manbai), sigir peshobi (10 litr, azotga va o‘sishni rag‘batlantiruvchi moddalarga boy), lavlagi yoki jo‘xori shirasi, dukkakli ekinlar uni (2 kilogramm, oqsil va azot) va suv (fermentatsiya uchun) solib aralashtiriladi.

Dala sharoitida zarur komponentlar topilmaganda ushbu bioo‘g‘it daladagi (konturdagi) bir belkurak (2 kilogramm) tuproq, bir kosa shakar (yoki lavlagi qiyomi) hamda suv aralashmasidan tayyorlanadi.

Ushbu tarkibiy qismlar 200 litrli bochkaga solinadi va suv bilan yaxshilab aralashtiriladi, 7 kun davomida soyada achitib qo‘yiladi. Ertalab va kechqurun aralashtirib turiladi.

Jivamritni to‘g‘ridan to‘g‘ri tuproqqa qo‘llash yoki 3-7 kun davomida barglar ustiga purkagan holda ishlatsa bo‘ladi. Ushbu bioo‘g‘itni yil davomida tayyorlab, foydalanish mumkin.

Uning afzalligi talaygina. Xususan, tuproqni azotni o‘zlashtiruvchi bakteriya va fosfatni erituvchi mikroorganizmlar bilan to‘yintiradi. Hosildorlikni oshiradi. Fermada mavjud komponentdan ishlatiladi va o‘g‘itlarga ketadigan xarajatlarni kamaytirishi bois, tejamkor. Ekologik xavfsiz. Kimyoviy qoldiqlar qoldirmaydi, tuproqdagi organik uglerod miqdorini ko‘paytiradi.

Qisqa qilib, jivamritni fermerlar yaratgan an‘anaga asoslangan, ammo ilm-fan tomonidan tasdiqlangan innovatsiya, desak bo‘ladi. U ekotizimga zarar yetkazmasdan ekin hosildorligi va chidamliligini oshirishga xizmat qiladi.

Fermerlarimiz dala sharoitida do‘konlarda mavjud mikrobiologik o‘g‘itlarni ham jivamrit tayyorlangan bochkalarda o‘zlari ko‘paytirib, dalaga yangi doimiy mikroorganizmlarni kiritishi va tuproqqa yanada malham berishi mumkin. Buning uchun agar jivamrit tayyorlanayotgan bochkaga barcha “masalliq”lar bilan birga biror nomdor bioo‘g‘itdan bir tomizg‘i qo‘shib qo‘yilsa kifoya. Qarabsizki, bu dala yangi foydali mikroorganizmlar bilan boyib, yer qayta tiklanib boraveradi. Hind dehqonlari buni bokashi o‘g‘iti deb ataydi. Bokashi ham jivamritdek juda kam xarajatli, lekin o‘ta samarali dala uslubidir.

Ayni paytda vazirligimiz tomonidan

**1 gektar
paxta maydonidan
o‘rtacha 6-7 tonna g‘o‘zapoya
olinadi. 1 tonna g‘o‘zapoyadan
o‘rtacha 450-462 kilogramm
biochar ishlab chiqariladi.
Bu mavsum oxirida g‘o‘zapoyani
maydalab, yerga sochib yuborishdan ko‘ra samarali bo‘lib,
gektariga 3-4 karbon birligi-
dagi gazning tarqalishini
kamaytiradi.**

Fermerlar kengashi bilan birgalikda uni qo‘llash bo‘yicha trening-seminarlar o‘tkazilmoqda. Bochkalar tarqatilib, joriy yil kuz va kelgusi yil bahor mavsumidan klaster, fermer, dehqon xo‘jaliklari va aholi tomorqalarida keng joriy etilishi rejalashtirilmoqda.

G‘o‘zapoyadan biochar olish qanday manfaat keltiradi?

G‘o‘zapoyani dalada behuda chiritmay, pistako‘mriga aylantirish va karbon bozorida sotish mumkinmi? Mumkin, buning imkoniyati bor. Bu yerda gap biochar (bio-ko‘mir) haqida ketmoqda.

Uglerodga boy ushbu bioo‘g‘it yog‘och, o‘simlik qoldiqlari, g‘o‘zapoya va boshqa organik chiqindilardan kam kislorodli yoki



kislorodsiz yopiq sharoitda (piroliz) qizdirish orqali olinadi. G‘ovak tuzilishga ega biochar qo‘llanganda, tuproqning organik moddalar va o‘simliklar uchun muhim bo‘lgan ozuqa elementlari miqdori oshadi. Namlik ushlab turiladi, mikroorganizmlar faolligi yaxshilanib, xilma-xilligi ko‘payadi. Gumus va ozuqa elementlar bilan kam ta‘minlangan tuproqlarda yaxshi natija beradi. Biocharning g‘ovakdorligi tuproq tarkibini yaxshilaydi. O‘simliklar o‘zlashtira oladigan elementlarni to‘plab, turli o‘g‘itlar qo‘llashni kamaytiradi. Biochar tuproqdagi uglerod (C) zaxirasini ko‘paytirib, tuproqdan chiqadigan zaharli gaz chiqindilarini kamaytiradi, iqlim o‘zgarishini yumshatishga xizmat qiladi.

Biocharni sanoat usulida tayyorlash ancha qimmat va maxsus uskunalar talab etadi. Biroq dala sharoitida buning imkon bormi? Albatta, bor!

Buning uchun gugurt, belkurak, chelak, suv, g‘o‘zapoya va xandaq kerak bo‘ladi. 2x2 yoki 3x3 metr o‘lchamdagi konussimon shaklda (bu juda muhim!) xandaq qaziladi, g‘o‘zapoya maydalanib, xandaqqa joylashtiriladi. Xandaqdagi g‘o‘zapoyalar ustidan (yuqori qismidan) olov yoqiladi va cho‘g‘i holatiga kelganda ustidan suv sepiladi (eslatma: ostidan yoqilsa, g‘o‘zapoya kulga aylanadi). Xandaq usti tuproq bilan kamida 4-5 soatga yopiladi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda 875 ming gektarda chigit ekilib, 3,8 million tonna paxta xomashyosi yetishtiriladi va o‘rtacha 5,5 million tonna g‘o‘zapoya olinadi. Ma‘lumot uchun aytish mumkinki, paxta maydonlari karbonat angidrid (CO₂) ni yutuvchi, kamaytiruvchi manbadir. Lekin kuzda maydalanib, dalaga sochib yuborilgan g‘o‘zapoyaning 1 tonnasi parchalanganda atmosferaga 2,5-3 tonna karbonat angidrid ajralib chiqadi. 5,5 million tonna g‘o‘zapoya parchalanganda atmosferaga qariyb 16,5 million tonna zararli gaz ajralib chiqadi.

Agar yuqoridagi usulda dalaning o‘zida g‘o‘zapoyadan biochar olinsa, CO₂ning katta hajmi atmosferaga qaytib chiqmay,

yerda uzoq muddat qoladi. Sababi, biochar 100 yilgacha sekin-asta parchalanadi va mavsumda g‘o‘za tomonidan yutilgan CO₂ gazini 100 yilga yer qariga “qamab” qo‘yish mumkin.

1 gektar paxta maydonidan o‘rtacha 6-7 tonna g‘o‘zapoya olinadi. 1 tonna g‘o‘zapoyadan o‘rtacha 450-462 kilogramm biochar ishlab chiqariladi. Bu mavsum oxirida g‘o‘zapoyani maydalab, yerga sochib yuborishdan ko‘ra samarali bo‘lib, gektariga 3-4 karbon birligidagi gazning tarqalishini kamaytiradi.

Dunyo karbon bozorida esa turli gigant korxonalar tomonidan (Shell, Microsoft, Boeing, Walmart, Chevron, Tesla) 1 karbon birligiga 173 dollar miqdorida mablag‘ to‘lanadi. Bu biochar ishlab chiqarib, yana o‘z dalasiga solgan fermerga gektariga 400 dollar miqdorida qo‘shimcha daromad degani.

Dunyo karbon bozori yiliga 16-17 foiz o‘sib, 2024-yili qariyb 500 milliard dollarga yetdi va karbon birliklarni ishlab chiqish va uni sotib olish kengayib bormoqda. Maqsadimiz — CO₂ gazini eng ko‘p yutadigan tabiiy paxtazorlarimizdan unumli foydalanib, fermerga tola va chigit ustiga qo‘shimcha daromad keltirish. Buning uchun birinchi bosqichda fermer xo‘jaliklari biochar tayyorlashga o‘rgatiladi, ikkinchi bosqichda ilg‘or xo‘jaliklar xalqaro kompaniyalar tomonidan sertifikatga qilinib, yillik monitoring yurgiziladi va uchinchi bosqichda yirik korxonalarga fermer tayyorlagan karbon birliklar sotiladi. Qolaversa, g‘o‘zapoyadan olingan biochar (bioko‘mir) dalaga tuproq uchun foydali azot (N), fosfor (P), kaliy (K), kalsiy (Ca), magniy (Mg) va ko‘plab mikroelementlar mavjud bo‘lib, ular tuproq xo‘rlanishini kamaytiradi va tuproq mikrobiotasini juda tez qayta tiklashga yordam beradi. G‘ovakligi tufayli tuproqda havo yaxshi aylanadi va ekinlar gurkirab rivojlanadi. Faqat ishqoriy tabiatga ega biochar dala bo‘ylab bir tekisda sochilishi va sochishda oldin kislotali tabiatga ega jivamrit bilan aralashtirilib, neytrallanishi yaxshi samara beradi.

O‘zbekistonda qurg‘oqchilikka uchragan va turli darajada sho‘rlangan, unumdorligi past yerlarda (Jizzax, Sirdaryo, Toshkent viloyatlarida) ushbu tajriba asosida 2 ta loyiha amalga oshirilgan. Xususan, g‘o‘zapoyadan biochar olingan. Bir gektarga 5-10 tonna miqdorda qo‘llanilganda tuproq organik modda va mikroelementlar bilan boyib, suvni ushlab turish qobiliyati va ekinlar hosildorligi 10-20 foiz oshgan.

Epigenetik yondashuvlar arzon va hammabop usul

Urug‘larni tindirish, dam oldirish va ularni ekishdan oldin uyg‘otish hosildorlik garovidir. Ko‘pincha biz ekinlar

genetikasiga e‘tibor qaratib, har qanday genning ishlashi uchun sharoit kerakligini esdan chiqaramiz. Boshqacha aytganda, bir mavsumdagi urug‘ni yig‘ib olamiz-ku, 2-6 oy o‘tmasdan keyingi mavsumga ekib yuboramiz. Masalan, g‘allachilikda. Natijada to‘la tinim davrini o‘tamagan, o‘zi mavsumning iyul oyida yetilgan, biroq sentyabr oyida yana yerga qadalgan bug‘doy urug‘i yaxshi unib chiqmaydi. Sababi, tinim davri o‘talmagan, urug‘ ekishga tayyor emas. Oqibatda hosildorlik pasayib boraveradi. Chigitda ham shunday. Kuzda terilgan chigit bahorda yerga qadaladi. Yoki kartoshka “ko‘zlari” chiqar-chiqmas yerga qadab yuborilishiga ko‘p guvoh bo‘lganmiz.

Shuning uchun vazirligimiz tashabbusi bilan bir necha ekinlar urug‘larini tindirib ekish amaliyoti joriy qilindi. Ya‘ni urug‘ bir mavsum o‘tkazilib, yaxshi sharoitlarda saqlanib, yetiltirib ekilmoqda. Masalan, g‘o‘za chigiti 2022-yildan boshlab 30-40 foiz miqdori zaxiraga olinib, bir mavsum tindirilmoqda va keyingi mavsumda ekilmoqda. Bunda hosildorlik gektariga tindirilmagan ekilgan bir xil navga nisbatan o‘rtacha 6 sentner yuqori bo‘lishi amalda isbotini topdi. Bu amaliyot paxtachilikda keng qo‘llanilmoqda.

Biroq bug‘doyni bir mavsum saqlash mashqaqatli, ko‘p hollarda urug‘ga mita tushib zararlab qo‘yadi. Nima qilish kerak? Donli ekinlar urug‘larini tez tindirib olish uchun ularni sovitkicha qo‘yib, qisqa muddat “uxlatib” olish kerak. Bu ilmiy tilda urug‘ni yarovizatsiya qilish deyiladi.

Yarovizatsiya (vernalizatsiya) o‘simlikning mavsumiy o‘zgaruvchan mo‘tadil iqlim sharoitiga moslashish uchun sovuq sharoitga qo‘yilgan urug‘ning fiziologik (epigenetik) reaksiya natijasida uning qishki ob-havoga moslashuvchanligi hamda erta, shuningdek, bir xil gullashga erishish maqsadida qilinadigan jarayon. Bu jarayon ko‘pincha donli ekinlar, sabzavotlar va ayrim mevali daraxtlar uchun qo‘llaniladi.

Yarovizatsiyaning maqsadi urug‘ unuvchanligini oshirish, o‘simlikning vegetatsiya davrini qisqartirish, yuqori va barqaror hosil olish, sovuqqa chidamlilikni oshirish, hosil sifatini yaxshilashdir.

Yarovizatsiya uchun harorat 1°S — +5°S oralig‘ida, urug‘lik namligi 10-12 foiz, xona namligi 30 foizgacha bo‘lishi shart.

Muddati ekin turiga qarab 45 kundan 60 kungacha. Bunda 1 tonna urug‘likni o‘rtacha 40-45 kun davomida sovitkichli omborda saqlash xarajatlari (elektr energiyasi, tashish, ortish va tushirish) o‘rtacha 350-360 ming so‘mni tashkil etadi.

2024-yil mavsumida barcha viloyatlarda 1000 gektar maydonda tajriba-sinov o‘tkazildi. Bir konturda yarovizatsiyalangan

hamda oddiy usulda saqlangan urug‘liklar ekilib, bir xil agrotexnik tadbirlar bajarildi, ilmiy asoslangan tavsiyalar bo‘yicha parvarishlandi.

Yarovizatsiyalangan maydonlarda genetik jihatdan bir xil bo‘lgan nav an‘anaviy usulda ekilgan maydonlarga nisbatan ko‘chat qalinligi o‘rtacha 0,5-1 million donagacha (ming gektar maydonda 1 milliard dona ko‘chat ko‘p), bir paytda gullashi (an‘anaviyda birin-ketin gullaydi) hamda boshqolardagi donning bir xilligi kuzatildi. Natijada yarovizatsiyalangan g‘alla an‘anaviy usulda ekilgan g‘allaga nisbatan aprobatyadandan o‘tkazilganda bitta boshqodagi donning soni 5-6 ta, ming dona donning og‘irligi 4-5 gramm ko‘p bo‘lishi hisobiga gektaridan o‘rtacha 8-10 sentner ko‘p hosil olishga erishildi. Ya‘ni yarovizatsiya qilingan 1 tonna urug‘lik (4 gektarga ekiladi) ekish hisobiga hosildorlik o‘rtacha 8-10 sentner yuqori bo‘lganda 4 gektardan qo‘shimcha 3,5 tonna g‘alla olish va 8-10 million so‘m qo‘shimcha daromad qilish imkonini mavjud.

Kelgusi yildan boshlab yarovizatsiya qilingan urug‘larni barcha maydonlarga to‘liq ekish amaliyoti joriy etiladi. Bu Vazirlar Mahkamasi qarori bilan belgilandi. 2026-yil hosili uchun 200 ming tonna urug‘lik bug‘doy tayyorlanib, belgilangan tartibda tinim davrini o‘tashi uchun (yarovizatsiyalangan urug‘) hududlardagi mavjud sovitkichli omborxonalarda saqlash choralari ko‘rildi. Barcha don va dukkakli ekinlar urug‘larini sovitkicha ana shunday yarovizatsiya qilish usuli dehqonlarimiz va tomorqa egalari kuni foyda! Xarajat yo‘q, ishtiyoq bo‘lsa bas!

Xuddi shunday, kartoshkani ekishdan oldin yarovizatsiya qilish juda muhim. Faqat kartoshkani sovitkichlardan yoki qishi bilan saqlangan yerto‘lalaridan olib, ularni nishlatish lozim. Albatta, issiq sharoitga qo‘yilgan urug‘lik kartoshka tezda uyg‘onib, nishlaydi, qorong‘iroq joyda qolsa nimjon, uzun, oq rangli o‘simtalar paydo qiladi. Biroq kartoshka tuganaklari qizil chiroq tagiga 1 oy davomida qo‘yilsa, uning barcha genlari uyg‘onadi va unib chiqishi, kelajakda sog‘lom o‘sishi va yuqori hosil olishga yordam beradi. Ushbu epigenetik tadqiqot orqali tuganaklarda fiziologik faollik jadallashirilib, nihollarning erta va bir xil paydo bo‘lishiga imkon yaratiladi. Bu usulni keng joriy etishdan asosiy maqsad urug‘ tuganaklarini erta va barqaror nishlatishga, nihollarning bir xil, sog‘lom bo‘lishiga, erta ekishga, hosildorlikni oshirishga erishishdir.

Texnologik jarayon tartibi o‘ziga xos. Urug‘lik tayyorlashda 30-50 gramm og‘irlikdagi, shikastlanmagan, virus va zamburug‘dan xoli tuganaklar tanlanadi. Zarur holatda (agar sovitkicha saqlangan bo‘lsa) quruq joyda 5-7 kun davomida tashqi muhitga moslashtiriladi.

0,8-1,5 kVt keramik chiroqlar tuganak yuzasidan 1-1,5 metr balandlikda joylashtiriladi (joylashuvda havo aylanishi bo‘lishi shart). Tuganaklar kuniga 4-6 soat, ketma-ket 15 kundan 1 oygacha 20-25°C haroratda, 60-70 foiz nisbiy namlik rejimida saqlanadi. Tuganak harorati har kuni termometr bilan tekshirib boriladi, haddan tashqari isish (>30°C) yoki namlik yig‘ilishi mumkin emas. Havo aylanishini ta‘minlash uchun har 2-3 soatda shamollatiladi.

Shunda mahsulotni bozorga tez chiqarish (erta hosil) va yuqori daromad olish, hosildorlikni 20 foizgacha oshirish mumkin. Muhimi, yondashuv ekologik toza.

Xulosa qilib aytganda, global iqlim o‘zgarishlari sharoitida yuqori hosildorlik va qo‘shimcha daromad olish bilan birga, ekologik barqarorlik, tuproqning qayta tiklanishini muntazam ta‘minlash, resurslarni tejash juda muhim. Yuqorida bayon etilgan yondashuvlar orqali fermerlar qo‘shimcha daromad olishi o‘zlarining ishtiyoqi va mehnatiga bog‘liq.

Vazirligimiz jamoasi yangi yondashuvlarni tushuntirish uchun hududlarda seminarlar tashkil etib, targ‘ibot va tashviqot qilmoqda. Vegetatsiya davrida agrotexnik tadbirlarni ilmiy asosda tashkil etish uchun vazirlik hamda ilmiy-tadqiqot institutlarining olim va mutaxassislari fermerlarga ko‘makchi bo‘ladi.



IQTISODIYOT UCHUN KATTA G'OYALAR MAJMUASI DEKADIR

TOSHKENT SHAHRIDA MUHANDISLIK YO'NALISHLARI BO'YICHA RESPUBLIKA KO'RIK-TANLOVI G'OLIBLARINI TANTANALI TAQDIRLASH MAROSIMI BO'LIB O'TDI

Mazkur tanlov 2025-yil may-iyul oylarida uch bosqichda tashkil etildi. Unda 40 yoshgacha bo'lgan iqtidorli 1262 muhandis intellektual salohiyati va yangicha qarashlarini namoyon qildi. Ishtirokchilarning loyihalari innovatsionlik, samaradorlik, amaliy qo'llash imkoniyati hamda barqaror rivojlanish mezonlari asosida baholandi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, 28 g'olib aniqlandi. 9 nafar 1-o'rin sohibi zamonaviy elektromobillar bilan taqdirlandi. Ikkinchi o'rin egalari va "Barqaror rivojlanish uchun eng yaxshi ixtiro" nominatsiyasi g'olibi xorijiy davlatda barcha xarajati qoplanadigan stajirovka yo'llanmasini qo'lga kiritdi. Uchinchi o'rin sohiblariga esa 37,5 million so'mlik pul mukofoti taqdim etildi.

G'oliblarga mukofotlarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining ta'limni isloh qilish bo'yicha o'rinbosari Hilola Umarova hamda oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'iro'tboy Sharipov tantanali topshirdi.

— Tanlovda birinchi o'rinni egallaganim men uchun kutilmagan voqea bo'ldi, — deydi Toshkent davlat transport universiteti professori Ziyoda Odilova. — Ochig'i, loyihamni mukofot olish uchun taqdim etmagandim. Maqsadim sohada yangilik qilish, ayrim muammolarga yechim topish edi.

G'oya muallifining ta'kidlashicha, mamlakatimiz temir yo'l xizmatida qo'llanadigan maxsus o'ziyurar avtotransport vositalari parki ancha eskirgan. Hozir yurtimiz bo'yicha taxminan 184-186 ta vosita ekspluatatsiya qilinmoqda, lekin ulardan salmoqli qismining samaradorligi

u O'zbekistonning eng yorqin yosh olimlaridan. Shuningdek, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish sohasi bo'yicha mutaxassis, ilmiy va innovatsion tashabbuslarning tan olingan yetakchisi.

Uning innovation ishlarni — suvni tozalash va oqilona foydalanish uchun mo'ljallangan mobil qurilma suvni ichimlik darajasida filtrlash bilan birga xo'jalik ehtiyojlariga taqsimlash imkonini beradi. Tizim suv sifatini intellektual algoritim orqali tahlil qiladi. O'rnatilgan sensorlar ifloslanish darajasini aniqlab, kerakli tozalash rejimini avtomatik tanlaydi. Natijada yuqori unumdorlik kam energiya sarfi bilan ta'minlanadi. Bu esa texnologiyaning qishloq xo'jaligi uchun qulay va arzon bo'lishiga xizmat qiladi.

Mazkur innovatsiya nafaqat O'zbekistonda, balki xalqaro miqyosda ham e'tirof etildi. Masalan, AQSHning Yuta shtatida joylashgan World Trade Center Utah markazi orqali uskuna muvaffaqiyatli sotilyotir. Bu holat mahalliy texnologiyalarning jahon bozorida ham raqobatbardosh ekanini tasdiqladi.

Tanlovda o'nlab loyihalar orasida E'zozbek Ozodovning ishlarni eng yaxshi deb topildi va birinchi o'ringa munosib ko'rildi. Uning ilm-fan va muhandislik



pasayangan. Yangilari esa juda qimmat — bitta texnika 1,5-2 million dollar atrofida turadi. Bu esa katta xarajatdir. Moliyaviy cheklorlar sababli parkni to'liq yangilash qiyin, natijada eski texnikani modernizatsiya qilish zarurati tug'iladi.

Mavjud dizelli vositalarning yonilg'i sarfi va ekspluatatsiya xarajati yuqori bo'lib, bu masala zamonaviy yechimlarni talab qilmoqda. Shu bois, taqdim etilgan loyihada ularni gibrid tizimga o'tkazish (dizel-elektrik gibrid qurilmalar bilan jihozlash) eng maqbul yechim sifatida taklif etildi.

Gibrid tizim hisobiga dizel iste'moli sezilarli darajada kamayadi. Masalan, tadqiqotlarga ko'ra, gibrid texnologiya joriy etilishi energiya iste'molini 10-15 foiz kamaytirishi mumkin. Bu yonilg'i tejamkorligini oshirib, ekspluatatsiya xarajatini pasaytiradi.

Dizel va elektr kombinatsiyasi natijasida divigatel atmosferaga chiqaradigan karbonat angidrid gazi va boshqa zararli chiqindilar taxminan 30 foiz kamayadi. Bu esa O'zbekistonning yashil rivojlanish maqsadlariga hamohangdir. Natijada havoning ifloslanishi kamayib, ekologik holat yaxshilanadi.

Modernizatsiya natijasida dizelli vositalarning qo'llanish muddati o'rtaacha 10-12 yilga uzayishi kutilmoqda, ya'ni parking foydalanish davri sezilarli darajada ortadi.

Umuman olganda, ushbu loyiha O'zbekiston temir yo'l sohasida innovatsion yechim bo'lib, muammolarni hal etish barobarida transport tizimining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadi.

Tanlovning yana bir g'olibi E'zozbek Ozodov yoshligidan ilm-fan va texnikaga katta qiziqishi bilan ulg'aydi. Bugun

Risolat MADIYEVA,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Xorazm azaldan qulay geografik joylashuvi, boy iqtisodiy salohiyati va tabiiy himoya qo'rg'onlariga egaligi bilan ko'plab fothilar e'tiborini tortgan. Qipchoq dasthdan Sind daryosigacha, Sharqiy Turkistondan Fors ko'rfazigacha yastanib yotgan katta sahrolar, tekisliklar, tog'lar, adirlar va vohalarni o'z ichiga olgan Anushtegin xorazmshohlar davlati (1097-1231-yillar) o'zbek davlatchiligi tarixida muhim o'rin tutadi. Bu davlat jahon tarixida barpo etilgan eng yirik imperiyalar qatorida turishi bilan doimo tarix ixlosmandlarining e'tiborini tortib kelgan.

Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida aytilishicha, Xorazmda olim yashagan davrgacha 3 ta sulola — afrig'iyalar (miloddan avvalgi 1200, milodiy 995-yillar), ma'muniylar (995-1017-yillar), olintoshlar (1017-1034-yillar) Xorazmshoh unvoni ostida hukmronlik qilgan. 1017-yilda ma'muniy xorazmshohlar sulolasi taxtdan ag'darilgach, davlat boshqaruvi kelib chiqishi turkiy elatdan bo'lgan hukmdorlar qo'lga o'tadi. Dastlab taxtga g'aznalik Mahmud nazorati ostidagi olintoshlar sulolasi, undan so'ng kelib chiqishi o'g'uz turklaridan bo'lgan Shohmalik o'tiradi. Shundan so'ng Xorazm boshqa bir turkiy qabila — saljuqiylar davlati tarkibiga kiritiladi. Biz so'z yuritmoqchi bo'lgan anushteginiylar (1097-1231-yillar) davlati aynan mana shu sulola hukmronligi yillarida vujudga kelgan.

1043-yildan so'ng Xorazmni saljuqiylar tomonidan tayinlangan voliylar boshqaradi.

1210-yilning sentabrida bugungi Ilimish sahosida shiddatli jang bo'lib, Xorazmshohning g'alabasi bilan tugaydi. Qochib ketgan qoraxitoylar O'zgangacha quvib boriladi. Movarounnahrda barcha qal'a va shaharlarga voliylar Xorazmshoh tomonidan tayinlanadi. Ayni paytda shimoli-sharqdagi eng muhim shaharlardan biri O'tror ham egallangan edi.

Jumladan, Xorazm 1066-yili Malikshohning o'g'li Arslon Arg'unga topshiriladi. Tarixchi Ibn al-Asir 1093-1094-yillarda Xorazmda Izzulmulk Abu Abdulloh Husayn ibn Nizomulmulk hokimlik qilgani to'g'risida ma'lumot bergan. 1097-yildan saljuqiylar voliysi bo'lgan Anushtegin xorazmshohlar davlati yangi sulolasining tamal toshini qo'yadi. Anushtegin kim bo'lgani to'g'risidagi ma'lumotlar Ibn al-Asir, Rashiddin Fazlulloh, Ibn Funduq al-Bayhaqi, Juvayniy va boshqa o'rta asrlar hamda zamonaviy davr tarixchilari asarida uchraydi. Ularning ma'lumotini umumlashtirgan holda quyidagi fikrlarni bildirish mumkin.

Anushtegin saljuqiylar davlati arkonlaridan bo'lgan Bilgategin garchistonlik Bilgabeg ismi amirdan sotib olgan qul edi. Garchiston — hozirgi Afg'onistondagi Murg'ob daryosining yuqori oqimida joylashgan tarixiy viloyat. Rashiddin Fazlullohga ko'ra, u Garchistondan sotib olingani uchun Anushtegin Garchai, ya'ni garchalik Anushtegin deb ham atalgan. U aqlli va bilimli bo'lgani uchun saljuqiylar davlatida xizmat pog'onalaridan birma-bir yuqorilab boradi va tashtdor — sulton hammomlari va hovuzlarining boshlig'i hamda ayni paytda Xorazm shixnasi unvonini oladi.

Saljuqiylarga qarashli Xuroson amiri Oluntosh o'g'li Dodbek Habashiy 1097-yilda Xorazmni qisqa vaqt idora qilgan Xo'qchor o'g'li Ekinchidan olib, Anushtegin vafotidan so'ng uning o'g'li Qutbiddin Muhammadga berdi. Qutbiddin Muhammad otasidan farqli ravishda Xorazmshoh degan unvon oldi. U haqida Shamsiddin Zahabiy (1274-1348-yillar) bunday ma'lumot keltiradi: “Podshoh, olim Abul Fath Muhammad ibn Nushtegin dindor,



fozil, taqvodor, zamonning yaxshilaridan, saxovatpesha, ko'p Qur'on tilovat etib, ko'p safar qiluvchilardan, tafsir ilmining bilimdonlaridan edi”.

Qutbiddin Muhammad 30 yillik xorazmshohlik davri (1097-1127-yillar)da davlatni munosib boshqaradi va olimlar hamda dindorlarga yaxshi sharoit yaratib beradi.

1127-yili Qutbiddinning o'rniiga kelgan o'g'li Otsiz bilim, mardlik va shijoatda tengi yo'q edi. U saljuqiylar sultoni Sanjarning yangi hududlarni davlat tarkibiga kiritishi uchun munosib xizmat qiladi. Sadogati tufayli Sanjarning ham unga ishonchi ortgan edi. Chunki u Sulton Sanjarni uyushtirilgan fitnadan saqlab qoladi. Abu Muzaffar, husam, amir ul-mo'minin kabi unvonlarga ega bo'ladi. Otsiz Xorazm atrofidagi o'g'uzlar ustiga yurish qilib, g'ozly sifatida nom qozonadi.

1135-yili Sulton Sanjar bilan G'azna va Balx atrofidagi harbiy harakatlarda ishtirok etgan Xorazmshoh Otsiz sultonning o'ziga nisbatan kayfiyati o'zgarganini, unga nisbatan fitna uyushtirmoqchi ekanini sezib, yurtiga qaytib ketadi va davlatini mustaqil deb e'lon qiladi. Jand va Mang'ishloqni Xorazmga qo'shib oladi. Sulton Sanjar uni jazolash uchun 1138-yili Xorazmga yurish qiladi. Bu urushda Otsizning o'g'li Otlig asir tushadi. Sulton Sanjar Xorazmga noib sifatida jiyani Sulton Sulaymonni tayinlab, Xurosonga qaytadi. Otsiz Xorazmga kelib, taxtni qayta egallaydi. Shu tariqa saljuqiylar xonadoni bilan oldingiday iliq munosabarga kirishishning imkonini qolmaydi.

Otsiz Xorazmning shimoli-sharqidagi chegara shahar bo'lgan Jandga o'g'li El Arslonni amir qilib tayinlaydi. 1156-yil Xorazmshoh Otsiz vafot etgach, Jandga voliylk

qilyotgan o'g'li El Arslon Gurganjga kelib, taxtni egallaydi.


El Arslon hokimiyatining dastlabki yillarida Movarounnahrning ishlariga aralasha boshlagan, Xurosonda ham sezilarli harakatlarni qilgan. Jumladan, Dehiston Xorazmga qo'shib olinadi va u yerda Xorazmshohning noibi qoldiriladi. El Arslon 16 yillik hukmronligi davomida otasi Otsiz kabi hokimiyatni mustaqil boshqarishga harakat qildi. U Sulton Sanjarga yo'llagan rasmiy nomalarida o'zini uning “muxlisi”, “ishonchli do'sti” deb atagan.

El Arslon saljuqiylarga mo'tadil munosabati tufayli o'g'li Takashning keyingi hukmdorligi uchun qulay zamin tayyorlagan edi. Lekin bu davrda Movarounnahrning katta qismini egallab olib, Xorazmga siyosiy ta'sir o'tkazayotgan Qoraxitoylar davlatiga xiroj to'lashning oldini olo olmaydi.

El Arslondan keyin qudrati, siyosati jihatidan ajdodlaridan ancha ustun bo'lgan Xorazmshoh Alouddin Takash taxtga chiqadi. Hukmronligining ilk davri ukasi Sultonshoh Mahmud bilan otasidan qolgan taxt mojarosi bilan o'tadi. El Arslon vafot etgan paytda katta o'g'il Takash valiahd sifatida Jand voliysi (hokimi) maqomida turgan. Poytaxt Gurganjda bo'lgan ukasi Sultonshoh Mahmud paytdan foydalanib taxtni egallagan edi. Ukasining hokimiyatini tan olmagun Takash eng yaqin va kuchli qo'shnisi bo'lgan qoraxitoylardan

El Arslon saljuqiylarga mo'tadil munosabati tufayli o'g'li Takashning keyingi hukmdorligi uchun qulay zamin tayyorlagan edi. Lekin bu davrda Movarounnahrning katta qismini egallab olib, Xorazmga siyosiy ta'sir o'tkazayotgan Qoraxitoylar davlatiga xiroj to'lashning oldini olo olmaydi.

El Arslondan keyin qudrati, siyosati jihatidan ajdodlaridan ancha ustun bo'lgan Xorazmshoh Alouddin Takash taxtga chiqadi. Hukmronligining ilk davri ukasi Sultonshoh Mahmud bilan otasidan qolgan taxt mojarosi bilan o'tadi. El Arslon vafot etgan paytda katta o'g'il Takash valiahd sifatida Jand voliysi (hokimi) maqomida turgan. Poytaxt Gurganjda bo'lgan ukasi Sultonshoh Mahmud paytdan foydalanib taxtni egallagan edi. Ukasining hokimiyatini tan olmagun Takash eng yaqin va kuchli qo'shnisi bo'lgan qoraxitoylardan



yordam so'raydi. Qoraxitoylar sarkarda Fumo boshchiligidagi qo'shin yuborib, Takashning taxtni egallashida ko'mak beradi va bu bilan Xorazmning qoraxitoylarga bog'liqligi kuchayadi.

Ko'p o'tmay, Takashga hurmatsizligi tufayli qoraxitoylar elchisi o'ldiriladi va qoraxitoylar bilan munosabat keskinlashadi. Oqibatda qoraxitoylar va Takashning ukasi Sultonshoh Mahmud ittifoq tuzib, Xorazm taxti uchun kurashadi, biroq Takashning uddaburonligi tufayli hech qanday natijaga erisha olmaydi.

Aka-uka o'rtasidagi munosabatlarga o'sha paytda Afg'oniston va Shimoliy Hindiston hududlarida tashkil topgan G'ur'lar davlati ham aralasha boshlaydi. Takash Movarounnahrda qoraxitoylar masalasini hal qilgach, Xuroson hududini egallashga kirishadi. Hatto G'uriylar hukmdoriga yozgan bir maktubida “o'g'lim” deb murojat qiladi.

1189-yili Xuroson va Tabaristonni mutlaq bo'ysundirgach, Tusdagi Rodkon o'rmonida taxtga o'tiradi va Sulton alauddunyo vaddiyn Abul Muzaffar Muhammad Takash Burhonu amir ul-mo'minin unvonini qo'lga kiritadi. Bu unvon Xorazmshohlar davlati va unga yondosh barcha mintaqada mashhur edi. 1193-yildan keyin Sulton Takash Iroqdagi saljuqiylar hududiga yurish qiladi va 1194-yili davlat poytaxti Hamadonni egallaydi.

1199-yili Sulton Takash Sirdaryo bo'yidagi yurishni g'alaba bilan yakunlagan bo'lsa,



boshqa tarafdin yana bir siyosiy g'alabaga erishadi. Iroqdagi jangovar harakatlari tufayli xalifa Nosir nihoyat xorazmshohning haqiqiy qudratini va saltanatini tan oladi. Xalifa Nosir elchilari Sulton Takashga hadyalar, to'nlar bilan birga Xuroson, Turkiston va Iroq mamlakatlarining hukmdori bo'lish haqidagi farmonini keltirgan edi.

Sulton Takash 1200-yil 29-mart kuni vafot etadi. Undan keyin hokimiyatga kelgan Qutbiddin Muhammad otasining ismi — Alouddin nomi bilan taxtga o'tiradi. Sulton Alouddin Muhammad saltanat boshqaruvining dastlabki yillari xonadon a'zolari qarshiliklariga, g'uriylarning istilochilik yurishlariga qarshi kurash bilan o'tadi. Ko'p hududlar qatori Iroq ham qo'ldan chiqib ketgan edi. G'ur'lar hatto 1204-yilda Xurosondan tashqari Xorazmni ham deyarli egallashga va poytaxt Gurganjni qamal qilishga muvaffaq bo'ladi. Gurganj qamali paytida buyuk faqih Shahobiddin Xeva'iy (Najmiddin Kubro)ning minbarda turib aholini dushmanga qarshi da'vat qilishi, Muhammad Xorazmshohning onasi Turkon xotunning vaqtida ko'rgan chora-tadbirlari, yordamga chaqirilgan qoraxitoylarning ayni vaqtda yetib kelishi sabab G'uriylar Xorazmdan haydat chiqariladi. G'uriylarning Xorazmga yurishi o'zlari uchun nihoyatda ayanchli tugaydi. Ular qo'shini yurtiga yetguniga qadar quvilib, qirg'in qilinadi. Nihoyat 1205-yili G'ur sultoni Shahobiddin dushmanlik qilmaslik to'g'risida ont ichib, yordam kerak paytda Xorazmshohga ko'makka shayligini bildiradi.

Buxoroda yuzaga kelgan tartibsizliklar davrida buxoroliklar Sulton Muhammaddan yordam so'ragan edi. Shu munosabat bilan u Buxoroga yurish qilib, o'lkani taniqli kishilari yordamida mahalliy hukmdorlarni Xeva'iy jazolaydi. G'uriylar bilan jangdagi g'alabasi, buxoroliklarning iltimosini qanoatlantirishi Sulton Muhammadning mintaqadagi obro'sini oshiradi. Samarqand xoni, qoraxoniy hukmdori Usmon Sulton Muhammad tomonidan yuborilgan elchilarga o'zining Xorazmshohga tobe ekanini ma'lum qiladi va uning nomiga xutba o'qitib, tanga zarb qildiradi.

Qoraxitoylar davlati Samarqanddan mahrum bo'lgach, urushga jiddiy tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Xorazmliklar dastlabki janglarda qo'shini ichidagi xiyonat sabab og'ir mag'lubiyatga uchraydi. Hatto Sulton Muhammad qoraxitoylar qo'liga muayyan muddat asir bo'ladi. Mag'lubiyatdan so'ng Gurganjga qoraxitoylar elchisi kelib, kelishilgan hiroj to'lanishini talab qiladi va Sulton Muhammadga hurmatsizlik ko'rsatib, saltanat taxtiga — Sultonning yonida o'tiradi. Bu hurmatsizligi tufayli Sulton Muhammad buyrug'i bilan elchilar Amudaryoga cho'ktiliradi. Oqibatda qoraxitoylar va xorazmshohlar o'rtasida keskin kelishmovchilik yuzaga keladi.

1210-yilning sentabrida bugungi Ilimish sahosida shiddatli jang bo'lib, Xorazmshohning g'alabasi bilan tugaydi. Qochib ketgan qoraxitoylar O'zgangacha quvib boriladi. Movarounnahrda barcha qal'a va shaharlarga voliylar Xorazmshoh tomonidan tayinlanadi. Ayni paytda shimoli-sharqdagi eng muhim shaharlardan biri O'tror ham egallangan edi.

Bu voqeadan so'ng Sulton Muhammadni “Ikkinchi Iskandar”, “Sulton Sanjar” deb atay boshlaydilar. Muhrilaridan biriga esa “Allohnig yer yuzidagi soyasi” iborasi yozilgan edi. 1215-yili G'uriylar davlati hududlaridagi o'zboshimchaliklarni tugatishni istagan Sulton Muhammad G'ur, Hirot, Garjiston, Zamindovar, G'azna, Hindistongacha bo'lgan hududni egallab, ularni boshqarishni katta o'g'li Jaloliddinga topshiradi. Mazkur muvaffaqiyatli harbiy yurishlar natijasida o'sha davrdagi ellikka yaqin yirik shaharni birlashtirgan ulkan saltanat vujudga keladi. Xorazmshohlar va mo'g'ullar o'rtasidagi bufer davlat vazifasini o'tagan Qoraxitoylar davlatining yo'q qilinishi saltanatning keyingi taqdiriga jiddiy ta'sir qilgan deyish mumkin.

Shohrxumirzo ISMOILOV,
Ma'mun universiteti dotsenti v.b.,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

2025-yil 16-sentabr, 191-son

6

2025-yil 16-sentabr, 191-son

MA'NAVIYAT

YANGI O'ZBEKISTON

Mulohaza

Insoniyat tarixi — soʻz tarixi. Avlodlar tajribasi, hissiyotlari, gʻoyalari va orzulari hamisha soʻzda qolgan, soʻzda saqlangan, soʻzdan uzatilgan. Soʻzsiz tarix yoʻq, mutolaasiz esa soʻzning qiymati. Ilk ogʻzaki dostonlaru dastlabki qoʻlyozmalardan tortib, elektron matnlargacha boʻlgan jarayonning hammasi bitta maqsadga xizmat qilib keldi — insonga oʻzini va olamni tanitish, uni borliqning mangu tartibli oqimiga qoʻshish, kimlik mohiyatini anglatish.

Azizbek YUSUPOV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri

Bugun esa zamonning tezkor pulsga koʻnikkan kishining turmush tarzi, faoliyati ham tezlashdi. Davr shiddati uni doimiy ravishda “Keyingisi nima haqida?” degan gʻalati holatga solib qoʻydi. Odamlar bir matnni toʻliq koʻzdan kechirmay turib, faqat sarlavhani oʻqishga odatlandi, videokontentni oxirigacha koʻrishga toqati yetmay qoldi. Maqsad — koʻproq narsani kamroq vaqtida bilish. Lekin shoshmashosharlikning oqibati biz oʻylagandan ancha xatarli ekan koʻp oʻtmay ayon boʻldi: diqqat parchalandi, ongda uzviylik yoʻqoldi, xotira sustlashdi.

Xoʻsh, harakatlar pala-partishlik bilan kechayotgan paytda mutolani qanday qilib ushbu ritmga moslashtirish mumkin? Mutolaa masalasi insonning hayotiy yoʻlini belgilab beruvchi muhim savol sifatida kun tartibida turar ekan, badiiy adabiyotni qay usulda taqdim etsak, uning taʼsir doirasi kattaroq boʻladi, odamlar qalbidan chuqurroq oʻrin egallaydi? Natija qay holatda birdan seziladi?

Bolada oʻqish koʻnikmasi boʻlishi shartmi?

Har qanday kitobning qadri kitobxonni oʻz oldiga savol qoʻyishga majbur etishida namoyon boʻladi. Shu orqali inson tafakkuriga tartib, istalgan yangilikni birinchilardan boʻlib eshitishga, oʻqishga oʻch miyasiga esa vazminlik, xotirjamlik kiradi.

— Kitobga qiziqishni uygʻotish uchun faqat “kitob oʻqish kerak” degan gaplar kifoya qilmaydi. Kitob hayotning bir qismiga aylanishi kerak, — deydi bolalar yozuvchisi Saʼdullo Quronov. — Masalan, oilada kechqurun barcha ekrandan uzilib, oʻzaro kitobdan parcha oʻqib muhokama qilish odatga aylansa, bu kitobning ahamiyati jonli ravishda koʻrsatilgan boʻladi. Yoki maktabda qahramonlarning qarorlari haqida qiziqarli bahslar tashkil etilsa, kitob oʻqish oʻquvchi uchun tirik jarayonga aylanadi. Bunday misollar shundan dalolat beradiki, kitobga intilish undan olingan maʼnoga bogʻliq. Kitob oʻqish orqali kishi oʻzini topadi, savollarga javob qidiradi, hissiyatlarini boshqaradi va oʻz yoʻlini anglaydi. Agar kitob mana shu vazifani ado etsa, u smartfondan oldin tanlanishi tabiiy holga aylanadi. Bolalar

yoʻzuvchisi boʻlganim uchun koʻp soʻrashadi: bolada oʻqish koʻnikmasi boʻlishi shartmi? Nima, busiz yashay olmaydimi? Bu savolga javob izlar ekanimiz, avvalo, atrofimizdagi barcha axborotning aslida, matn ekanini anglashimiz kerak. Kitob, gazeta yoki internet tarmogʻidagi xabarlaru yoʻl belgilaridan tortib, toʻdorlar qutisidagi yoʻriqnomalargacha hammasi oʻqish orqali oʻz maʼnosini topadi. Demak, oʻqish koʻnikmasi shunchaki bilim olish vositasi emas, balki hayotning oʻzidir. Bola matnni oʻqib, tushunishni oʻrganar ekan, u nafaqat axborot qabul qiladi, balki uni analiz qiladi, turli nuqtayi nazarlarni solishtiradi, fikr yuritadi. Bu jarayon uning qobiliyatini kuchaytiradi, dunyoqarashini kengaytiradi. Shu bilan birga, bola oʻz istaklarini ifoda etishga ham qodir boʻlib boradi.

Oʻqish koʻnikmasi — bolaning salohiyati bor boʻyicha ochilishida asosiy omillardan biri. Kitob oʻqigan bola tasavvur qiladi, obrazli fikrlaydi, ijodiy yechim topishga intiladi. Uning mulohazalari chuqurlashadi, soʻz orqali taʼsir oʻtkazish imkoniyati kuchayadi. Bu uning keyinchalik tanlaydigan kasbi, ijtimoiy munosabatlari, shaxsiy hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Bugungi shiddatli zamonada quror qabul qilish tezkorligi va aniqligi muhim. Bolada oʻqish koʻnikmasi qanchalik mustahkam boʻlsa, u maʼlumotni shunchalik tez tushunadi, tahlil qiladi va xulosa chiqaradi. Bu esa uning hayotiy qarorlarida ham koʻrinadi: u ishonchli manbani tanlaydi, fakt va feykni farqlaydi, hissiyotga berilmasdan, aql bilan harakat qiladi. Shuning uchun ham bolalarda oʻqishga qiziqish uygʻotish, bu koʻnikmani odat darajasiga aylantirish juda zarur.

Aynan mutolaa saviyamiz “hududi”ni kengaytirib beradi. Kitobsiz hayotni tasavvur qilish mumkin, faqat u post-apokaliptis holatida boʻladi: dunyo yakrang, yaratuvchanlik, ijodkorlik tushunchasi yoʻq, yashash uchun kurash bor, xolos. Aytmoqchimaniki, adabiyotning qadri boshqa sohalaridan, fanlardan past emas. Masalan, kimdir matematika nimaga kerak degan savolni bersa, javob aniq va tugal boʻladi. Chunki bilamiz, u bizga ikki karra ikki toʻrt ekanini oʻrgatadi. Bu — qonuniyat, ilmiy asos. Xoʻsh, bolalar adabiyoti yoki umuman mutolaa-chi? U ham matematika kabi hayotiy zarurdir. Farq shundaki, matematika bizga hisob-kitobni oʻrgatsa, mutolaa oʻsha hisob-kitobni qilish uchun fikrlash lozimligini oʻrgatadi.

34 yillik ruhiy transformatsiya

Biror sohaning barqaror rivojlanishi uchun toʻgʻri, haqqoniy va konstruktiv tanqid zarurdir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bolalar adabiyoti sohasida soʻnggi yillarda sezilarli oʻsish kuzatildi. Yozuvchilar, shoirlar, nashriyotlar va oʻquvchilarning oʻzaro birlashuvi natijasida asarlar sifati oshdi, turli janr va mavzular boyidi, yangi qahramonlar va voqealar paydo boʻldi. Biroq bu rivojlanish hali boshlanish darajasidagina ekanini inkor etib boʻlmaydi. Sohaning oʻz potentsialini toʻliq

YANGI GICHA MUTOLAA MADANIYATI

KITOB OʻQISHNI OMMALASHTIRISHNING OʻZIGA XOS YECHIMLARI

Ular oʻz vaqtida oʻqigan kitoblarini, davrning jozibasini eslab, hozirgi avlodni ularning fonida baholaydi, — deydi yozuvchi Shavkat Doʻstmuhammad. — Aslida, oʻsha davrda ham kitobxonlar qatorida umuman qoʻliga kitob ushlamaganlar ham boʻlgan. Bugungi kitobxon tanlash imkoniga ega, yaʼni axborot tanlovi koʻpaygan. Ilgari kitob asosiy bilim manbai edi. Endi esa kitoblar yoniga audiokitoblar, turli kitobxonlik guruhlar, shaxsiy bloglar qoʻshildi. Umuman olganda, bugun yoshlarning mutolaa haqidagi tushunchalari ancha boshqacha. Biz bir paytlar koʻproq badiiy kitob oʻqirdik, balki uqahramonlar hayoti bilan yashardik. Yoshlar esa hozirgi paytda nafaqat badiiy adabiyot, balki kitobxonlikning ancha keng va murakkab yoʻnalishlariga qiziqmoqda. Ular texnologiya, sotsiologiya, ijtimoiy muammolar, iqtisodiyot va boshqa turli mavzularda kitob oʻqishga intiladi. Yana ular oʻz bilimlarini faqat oʻqish bilan cheklamay, tarjima qilish, tahrir etish, blog-

Kutubxonadagi manbalar foydalanuvchilar ehtiyojiga mos kelgan taqdirdagina u zamonaviy va jozibali maskanga aylanishi mumkin. Buning uchun, avvalo, kitob fondlarini muttasil yangilab borish zarur.

Tez oʻqimoq — tez fikrlamoq demak

Yurtida kechayotgan oʻzgarishlarni anglash, zamon tezligini his qilish uchun mutolaa ham oʻzgacha yondashuv kerak. Zamon shiddatida yoʻqolib qolmaslik uchun yoshlar nafaqat koʻproq oʻqishi, balki undan ham muhimroqʻi — tez oʻqishni oʻrganishi lozim. Tez oʻqish mutolaa katta ahamiyatga ega: bu jarayonda shaxsning xotirasi mustahkamlanadi, diqqatini jamlay olish qobiliyati oʻsadi. Bu esa oʻz navbatida aqliy rivojlanishni taʼminlaydi.

Tez oʻqish tarbiya jarayonida ham muhim ahamiyatga ega. Psixologik tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, oʻrta maktabning 6-7-sinflarida oʻqishga boʻlgan qiziqish sezilarli pasayadi. Bunga taʼsir qiluvchi asosiy omillardan biri — oʻquvchilarda shaxsiy masʼuliyatning kamayishidir. Bu holat, ayniqsa, 5-sinfda yaqqol koʻzga tashlanadi. Masʼuliyatsizlik esa koʻpincha 3-4-sinlarda darslarni oʻz vaqtida oʻzlashtirmaslik sababli shakllanadi. Natijada oʻquvchi murakkab matnlarni tez anglay olmaydi. Demak, boshlangʻich sinflardayoq tez oʻqish koʻnikmasini shakllantirgan bolalar keyinchalik saboqlarga masʼuliyat bilan yondashadigan, faol va yetuk insonlar boʻlib kamol topadi.

— Tez oʻqishning iqtisodiy samaradorligi ham yuqori. Tadqiqotchilar fikriga koʻra, ishchilarning bilimga chanqoqligi va tez oʻqish qobiliyati mamlakat taraqqiyotida muhim omil hisoblanadi, — deydi psixolog Maʼruf Ochilov. — Masalan, baʼzi mamlakatlarda rahbar lavozimida ishlaydigan kishidan tez oʻqish talab etiladi. Chunki sekin oʻqiydigan rahbar qogʻozlarga koʻmilib qolishi va qaror qabul qilishda ortda qolishi mumkin. Maʼlumki, fuqarolarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda gazeta va jurnallar muhim ahamiyatga ega. Deylik, “Yangi Oʻzbekiston” gazetasiyning bitta soni oʻrtacha 12 ming soʻzdan iborat boʻlsa, oʻquvchi bir daqiqada 80 ta soʻz oʻqigan taqdirda uni toʻliq oʻqib chiqishi uchun taxminan 2,5 soat vaqt sarflaydi. Agar tezroq oʻqisa, kamroq vaqt ketadi va koʻproq maʼlumotga ega boʻladi. Demak, tez oʻqishning maʼnaviy ahamiyati ham katta.

Tadqiqotchilar mutolaa texnologiyasining sifat va miqdor yoʻnalishlari oʻrtasida mutanosiblik boʻlishi uchun “optimal oʻqish”ni tavsiya qiladi. Optimal oʻqish bu — soʻzlashuv nutqi darajasidagi oʻqish boʻlib, u bir daqiqada 130-150 soʻz oʻqishni anglatadi. Mazkur holatda oʻquvchi nafaqat koʻproq maʼlumotga ega boʻladi, shu bilan birga uni chuqur anglash imkoniyatiga ham erishadi. Ayniqsa, ilmiy xodimlar va rahbarlar uchun tez va samarali oʻqish talab etiladi.

Qisqacha aytganda, mutolaa tezligi maʼlumotni qabul qilish surʼatiga bevosita bogʻliq. Bu esa kitobxonning tahlil qilish qobiliyati va aqliy salohiyati kabi shaxsiy xususiyatlar bilan uzviy aloqador.

Muqova va mutolaa: vizual taʼsirning ahamiyati

Biz koʻpincha asarning qiymati uning mazmunida deb aytamiz, bu, shubhasiz, toʻgʻri. Ammo inson ruhiyatining ilk taʼsirlanish nuqtasi hamisha tashqi koʻrinishdan boshlanishi ham haqiqat ekanini inkor qilolmaymiz. Har qanday kitob oʻquvchining qoʻliga dastlab muqovasi orqali yetib boradi, uning rangi, shrifti, ishlangan dizayni yoki asarga mos ramziy belgisi kitob haqida dastlabki tasavvurni uygʻotadi.

— Bugungi kunda oddiy qogʻozga chop etilgan asar bilan kreativ muqovaga ega kitob oʻrtasida katta tafovut bor. Chunki kitob doʻkoniga kirgan odam koʻp hollarda avval kitoblarning nomi yoki muallifidan koʻra, uning tashqi koʻrinishiga nazar tashlaydi, — deydi rassom-illyustrator Sarvar Farmonov. — Agar muqova oʻz ichiga ruhiy quvvat, badiiy jihatdan mukammallik, oʻziga xos uslub va “chaqiruv signali”ni sigʻdira olgan boʻlsa, kitob oʻquvchining qoʻliga tezroq yetib boradi. Toʻgʻri, muqova kitob uchun himoya vositasi, biroq uni psixologiyaning moddiylashgan qismi desak ham boʻladi. U odamga “meni och” degan chaqiriqni ifoda etadi. Yoshlar, ayniqsa, bolalar kitobni koʻz bilan tanlaydi, keyin mazmun bilan tanishadi. Shu tomondan, muqovaning oʻrni badiiy matn bilan barobar ahamiyat kash etadi. Muqova haqida bunday tarzda fikr yuritish kitobning mazmunini kamitish emas, albatta, balki uning qadriyati yanada yuksaltirishdir.

Oxirgi yillarda muqovaga eʼtibor sezilarli darajada oshdi. Ilgari koʻp asarlarimiz klassik uslubdagi, rangi toʻq (odatda yashil, qizil rangda) va tartibli, bir xil qoligba solingan muqovalar bilan chop etilardi. Bu holat kitobning ichki mazmuniga toʻsiq boʻlmasda, uning omamga yetib borishida muayyan cheklavlarni yuzaga keltirardi.

Bugun esa yangi avlod dizaynerlari va nashriyotlari kitob muqovasini badiiy va estetik jihatdan mukammal tayyorlashga intilmoqda. Yosh mualliflarning asarlarida kreativ, minimalizmga asoslangan, zamonaviy rang uygʻunligida ishlangan muqovalar koʻpaygan. Ayniqsa, psixologiya, falsafa va publisistikaga oid kitoblarda bir qarashda sodda, ammo maʼnosi kuchli vizual ishlanmalar uchraydi. Bu kitobga yangi talablarga javob beruvchi madaniy mahsulot sifatida qarash imkonini beradi.

Maʼlumotlarga qaraganda, yoshlar koʻpincha kitobni dastlab uning internetdagi foto jamlamasi orqali tanlaydi, xarid qiladi. Platformalardagi sotuv jarayonida raqobat kuchli. Bir xil mavzuda koʻplab kitoblar taklif etilayotgan sharoitda aynan muqova kitobning taqdirini belgilab qoʻyayotgani uchun ham bugungi raqobat sogʻlom va har tomonlama foydali.

Biroq shu bilan birga, ayrim hollarda muqovani tijoriy maqsadlar uchun kitob mazmunidan uzoklashtirib qoʻyish holatlari ham kuzatilmoqda. Masalan, baʼzi asarlar mazmuniga mutlaqo aloqasi yoʻq, biroq “koʻzni qamashtiruvchi” ranglar bilan chiqariladi. Bu oʻquvchidagi ishonchni yoʻqotishi mumkin. Shuning uchun muqova asar mazmuniga uygʻun boʻlishi lozim.

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, bugun kitobxonlikni ommalashtirish maqsadida keng aholi qatlamini kitob mutolaaiga jalb qilish va ularni kitob bilan taʼminlash boʻyicha ommaviy tadbirlar, xavriya aksiyalarini tashkil etish, ijtimoiy reklamalardan unumli foydalanish, oʻzbek hamda jahon adabiyotining mumtoz va zamonaviy badiiy asarlarini targʻib qilish, ushbu sohada jamoatchilik tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash, volontyorlik harakatini rivojlantirish, kitobxonlik muammosining keng jamoatchilik muhokamasini, shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlar hamda internet imkoniyatlaridan keng foydalanish holida tashkil etish boʻyicha aniq ishlar olib borilayotgani quvonarli. Shu ruhda davom etish esa kutilayotgan natija koʻlamini yanada kengaytirishi shubhasiz. Zero, jamiyatda kitobxonlikning oʻsishi xalqimizning intellektual salohiyati oʻsishiga, inson resurslari sifati oshishiga, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy hamda innovatsion taraqqiyotiga xizmat qiladi.

“Yangi Oʻzbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:
Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qoʻlyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatl chop etilishiga “SHARQ” NMAK masʼul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan roʻyxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. **Buyurtma** G-946. 34830 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qogʻoz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon koʻchasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Iroda Toshmatova
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Roʻziyev

Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrizabz koʻchasi, 85-uy

OʻZa yakuni — 00:15

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va eʼlonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05